



YOSHLAR ORASIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO‘LLARI

Muallif: Alimov Zokir Chori o‘g‘li ¹

Affiliyatsiya: Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17569692>

ANNOTATSIYA

Yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, uni rivojlantirishning zamonaviy usullari va samarali mexanizmlari yoritilgan. Raqamli axborot asrida o‘qish odatini saqlab qolish, yoshlarni badiiy, ilmiy va ma’rifiy adabiyotlarga jalb etishning dolzarb jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida kitobxonlikni targ‘ib etishning innovatsion usullari, oilaviy va ta’lim muassasalarida o‘qish madaniyatini shakllantirish bo‘yicha takliflar keng yoritildi.

Kalit so‘zlar: Kitobxonlik madaniyati, raqamli platformalar, Axborot-kutubxona markazlari, bir oilada – bir kitob, bugun o‘qigan sahifam.

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborot oqimi kuchaygan davrda yoshlarning ma’naviy dunyosini boyitish, ularning fikrlash doirasini kengaytirish uchun kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kitob inson tafakkurini charxlaydigan, bilim va tarbiyaning asosiy manbai bo‘lib, yosh avlodni intellektual rivojlantirishda beqiyos o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning: “Kitob o‘qishga mehr uyg‘otish — bu yoshlar tafakkuriga, kelajagimizga sarmoya kiritish demakdir” degan so‘zlari kitobxonlik masalasining strategik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shu bois yoshlar o‘rtasida o‘qish madaniyatini shakllantirish davlat siyosati darajasida e’tiborga olinmoqda.

Xalqimiz turmush tajribasidan ma’lumki, ajdodlarimiz farzand tarbiyasida kitob mutolaasiga alohida e’tibor qaratishgan. Buyuk Navoiy-u Bobur, Amir Temur-u Ulug‘bek kabi alloma-yu ijodkorlarimiz, tojdor-u daholarimiz ma’naviyati bolalikdan kitobga mehr qo‘yish bilan shakllangan. Ajdodlarimiz xalq ertaklari-yu dostonlarini tinglab tasavvur va tafakkur dunyosini, ruhiyat olamini boyitishgan. Adabiyot durdonalari – xoh xalq og‘zaki ijodi namunalari, xoh yozma asarlar bo‘lsin – xalqimiz qalbida yurtiga, ona tiliga, oilasiga, vatandoshlariga mehr-muhabbat va sadoqat, milliy g‘urur, or-nomus, adolat-u insof, andisha-yu hurmat, olijanoblig-u saxovatpeshalik sifatleri shakllanishida asosiy vosita bo‘lib xizmat qilgan. Bunday ma’naviyat durdonalari mutolaa qilingan, tinglangan, eng muhimi, oila davrasida yoki jamoat ichida muhokama qilingan, bahs-u tortishuvlar asosida asarlar mazmun-mohiyati anglangan, anglatilgan. Ahamiyatli shundaki, yosh-u qari birday qiziqish bilan ishtirok etadigan bunday davralarda mushohada qilish va mulohaza yuritish, mantiqiy fikrlash qobiliyati, keng dunyoqarash va tafakkur shakllangan, e’tiqod va

iroda mustahkamlangan, notiqlik mahorati o'sgan, kishilar ongi ham ma'nan, ham ruhan, ham ilman boyib borgan

Kitobxonlik madaniyatining mohiyati va ahamiyati kitobxonlik madaniyati – bu shaxsning o'qishga bo'lgan ichki ehtiyoji, o'qigan asarini tahlil qila olish, fikr yuritish, ma'naviy zavq olish qobiliyatidir. Kitob insonning tafakkurini boyitadi, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantiradi.

Yoshlar orasida kitobxonlik darajasining pasayishi ko'p hollarda internet va raqamli texnologiyalarning haddan tashqari ta'siri bilan bog'liq. Shu bois, bu jarayonda zamonaviy texnologiyalarni foydali tarzda kitob targ'ibotiga yo'naltirish zarur.



1-rasm. Kitob targ'ibotiga yo'naltirish tamolyilari

Kitobxonlikni rivojlantirishning samarali yo'llari yoshlar orasida kitobxonlikni kuchaytirish uchun quyidagi yo'nalishlar samarali hisoblanadi.

Ta'lim muassasalarida kitobxonlik haftaliklari, "Eng faol kitobxon" tanlovlari, o'quvchi klublari tashkil etish. Raqamli platformalar orqali (elektron kutubxonalar, audiokitoblar, mobil ilovalar) o'qish imkoniyatlarini kengaytirish. Oilaviy o'qish an'analari tiklash, ota-onalar ishtirokida "Bir oilada – bir kitob" tashabbuslarini yo'lga qo'yish. Mashhur yozuvchilar, bloggerlar va ziyolilar ishtirokida kitobxonlik targ'ibot aksiyalarini o'tkazish. Ijtimoiy tarmoqlarda "Kitob tavsiyasi", "Bugun o'qigan sahifam" kabi interaktiv loyihalarni joriy etish.

Kitobxonlikni targ'ib etishda ijtimoiy institutlar roli. Ta'lim muassasalari, mahalla, ommaviy axborot vositalari, yoshlar tashkilotlari hamkorligida o'quvchi va talabalar o'rtasida kitobxonlik targ'iboti samarali yo'lga qo'yilsa, bu jarayon keng ommalashadi. Ayniqsa, Yoshlar ishlari agentligi va Axborot-kutubxona markazlari hamkorligi bu borada muhim o'rin tutadi.

Jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishda, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan omillar bir qancha bo'lib, shulardan eng muhimi – bu kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mazkur yo'nalishda tashkiliy-amaliy ishlarni olib borish va ularni zamon talablariga mos tarzda yo'lga qo'yish bo'yicha tegishli huquqiy-me'yoriy hujjatlar

bazasi yaratilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bu sohada ijobiy o'zgarishlar, tub islopotlar amalga oshirishga qaratilgan 2006-yil 20-iyuldagi. "Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi qarori, 2011-yil 13-apreldagi "Axborot-kutubxona to'g'risida"gi Qonuni, 2017-yil 12-yanvardagi «Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida»gi Farmoyishi, 2017-yil 13-sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha Kompleks choratadbirlar dasturi to'g'risida"gi Qarori asosida yurtimizda keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Mazkur qonun va qonunosti hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash yuzasidan hududlarda Axborot-resurs markazlari faoliyati zamon talablariga mos isloh qilindi, yangi kitob savdo do'konlari faoliyati yo'lga qo'yildi hamda aholiga xizmat ko'rsatish sifat jihatidan ancha takomillashtirildi. Kitobsevarlar o'rtasida o'tkaziladigan ko'rik-tanlovlar respublika miqyosida ommalashtirildi va shaxsan davlatimiz rahbari tomonidan rag'batlantiruvchi sovrinlar belgilandi. Yoshlarning kitob o'qishga ishtiyoqi ortdi.

XULOSA

Yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish — bu nafaqat o'qish odatini shakllantirish, balki intellektual jamiyatni barpo etishning muhim omilidir. O'qigan, fikrlaydigan, tahlil qiladigan yosh avlodgina millatning ma'naviy tayanchi bo'la oladi. Shu bois, har bir ta'lim muassasasi, oila va jamoat tashkiloti bu jarayonda faol ishtirok etishi lozim. Kitobxonlikni zamonaviy axborot vositalari bilan uyg'un rivojlantirish esa bu sohaning kelajakdagi barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M.ning kitobxonlikni rivojlantirishga oid nutqlari (xususan: "Kitob — ma'naviyat manbai, millat ko'zgusidir" g'oyasi asosidagi chiqishlar)
2. Mirziyoyev Sh.M. "Yoshlar siyosati to'g'risida"gi Qonun (2016-yil 14-sentabr)
3. "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatishni rivojlantirish hamda kitobxonlik madaniyatini oshirish bo'yicha davlat dasturi" (2017-yil, PQ-3271-son)
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2021.
5. To'xtayev A. Kitobxonlik madaniyati va uning shakllanish bosqichlari. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
6. Abdullayeva N. Yoshlar ma'naviyati va o'qish madaniyati. — Toshkent: Istiqlol, 2020.
7. Nurullayev M. Kitobxonlik psixologiyasi va yoshlarning axborot ehtiyojlari. — Toshkent: Fan, 2022.